

**O'RTA OSIYO DAVLATLARINING XVIII - XIX ASR BIRINCHI  
YARMIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI VA KARTOGRAFIK  
TADQIQOTLAR.**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Jo'raqulova Mukambar Tursunmurod qizi*

*[mukambarjurakulova@dtpi.uz](mailto:mukambarjurakulova@dtpi.uz)*

*Tel: +99895120809;*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Fayziyev Abdulazizbek Ravshan o'g'li*

*[fabdulazizbek@gmail.com](mailto:fabdulazizbek@gmail.com)*

*Tel: +998919074240;*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Xursanova Farangiz Ulug'bek qizi*

*[farangizxursanova80@gmail.com](mailto:farangizxursanova80@gmail.com)*

*Tel: +998947482949;*

***Annotatsiya:** Sizga havola etilayotgan ushbu maqolada XVIII-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo davlatlarining tarixiy-geografik manzarasini ilmiy-nazariy , metodologik asoslarga tayangan holda obyektiv yoritishga e'tibor qaratdik. Shu maqsadda o'sha davrda mavjud bo'lgan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy kelishmovchiliklar, o'zaro nizolar va ichiki boshboshdoqliklarning O'rta Osiyo geografiyasida o'zgarishlarga sabab bo'lganligini ochib berishga harakat qildik. Maqolada doimiy nizolarga sabab bo'lgan hududlarni tarixiy manbalarga tayanib chuqurroq yoritishga diqqat qildik.*

***Kalit so'zlar:***

**ИСТОРИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ И КАРТОГРАФИЧЕСКОЕ  
ИССЛЕДОВАНИЕ ГОСУДАРСТВ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ПЕРВОЙ  
ПОЛОВИНЕ XVIII - XIX ВВ.**

***Аннотация:** В предлагаемой Вам статье мы сосредоточились на*  
*[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)*

*2-to'plam dekabr 2023*

*объективном освещении историко-географического ландшафта стран Центральной Азии в первой половине XVIII-XIX веков, опирающемся на научно-теоретические и методологические основы. С этой целью предпринята попытка выявить, что существовавшие в то время общественно-политические разногласия, конфликты и внутренние лидерства, существовавшие в Бухарском эмирате, Хивинском и Кокандском ханствах, вызвали изменения в географии Центральной Азии. В статье мы уделили внимание подробному освещению регионов, являющихся причиной постоянных конфликтов, на основе исторических источников.*

**Ключевые слова:**

***HISTORICAL GEOGRAPHY AND CARTOGRAPHIC RESEARCH OF CENTRAL ASIAN STATES IN THE FIRST HALF OF THE 18TH - 19TH CENTURIES.***

***Abstract:*** *In this article, which is referred to you, we focused on the objective coverage of the historical-geographical landscape of the Central Asian countries in the first half of the XVIII-XIX centuries, based on scientific-theoretical and methodological foundations. For this purpose, an attempt is made to reveal that the socio-political disagreements, conflicts and internal leaderships that existed in the Bukhara Emirate, Khiva and Kokand khanates that existed at that time caused changes in the geography of Central Asia. we did In the article, we paid attention to in-depth coverage of the regions that are the cause of constant conflicts, based on historical sources.*

**Key words:**

**Kirish:** Biz Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari davridagi davlatimizning ijtimoiy-siyosiy aholini ko'rib chiqar ekanmiz , qanchlik katta iqtisodiy, madaniy, ma'naviy shart-sharoit va imkoniyatlarga ega bo'lmasin, markaziy hokimiyatning zaiflashishi, mahalliychilik, siyosiy boshboshdoqchilik mamlakat va davlatining boshqa barcha qudratlarini kesib yuboradi. Balki shu bois ham XVIII-XIX asrlarda ajdodlarimiz Temuriylar davrida ega bo'lgan katta sarhadlarni boy bergandi. Bu o'rinda sulola a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar

va nizolar butun boshli xalqning jabr chekishiga sabab bo'ldi. Boisi shundak,i ushbu nizolar natijasida katta-katta hududlar yillar davomida qo'ldan-qo'lga o'tib siyosiy mojarolarga sabab bo'lgan. Marv, Xo'jand va O'ratepa doimiy hukmdorlik uchun talashilgan hududlar edi. Ushbu chegara viloyatlarini qo'lda saqlab qolishdan manfaatdor bo'lgan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari doimiy ravishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lib keldilar.

**Muhokama va natijalar:** XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida muhim mavqeiga ega edi. Bu davrga kelganda amirlik hududlari ikki yuz ming kvadrat kilometrni tashkil etar edi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'oqlaridan Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'laridan tortib, g'arbda Xiva xonligiga qadar bo'lgan hududlarni ish'ol etardi. Buxoro va Samarqand kabi shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markazi hisoblanar edi.[1] Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh , Kofirnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, hozirgi Turkmaniston hududidagi Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng nufuzli shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoroyi Sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo'y shartlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez -tez urushlar bo'lib , bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida ikki millioncha aholi yashagan bo'lib, ularning ko'pchiligini o'zbeklar, shahar va qishloqlarda tojiklar, janubiy-g'arbiy tumanlarda ko'chmanchi turkmanlar, arab va yahudiylar tashkil etgan. Aholining aksariyat ko'pchiligi qishloqlarda istiqomat qilardi. Ular dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanar edi. Bu davrda amirlik Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Eron davlatlari bilan tashqi savdo

aloqlari olib bordi. Yirik savdo-sotiq markazi bo'lgan Buxoroda 1848-yilda 38 ta karvonsaroy, 9 ta tim va ko'plab bozorlar bo'lgan.

Buxoro amirligida 27 ta beklik bo'lgan, bular: Karmana , Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog', G'uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo'y , Hisor, Ko'lob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Sho'g'onon-Rushon, Qo'rg'ontepa, Qobodiyon, Kalif, Bo'rdalik , Qoboion beklilari edi.[2]

Xiva xonligi manbalarga kórsatilishicha XIX ASR birinchi yarmida Xiva xonligining hududi 19 ming kvadrat milni tashkil etgan. Xonlik janubda Eron bilan , sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kasbiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Sudsiz, cheksiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini hududiy jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Quyi Amudaryo bo'yi Xiva xonligining markaziy qismini tashkil etar edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva , Urganch, Qiyot, Ko'hna Urganch, Hazorasp, Qo'ng'irot, Xo'jayli, Kurdar(hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri xonlikning poytaxti hisoblanardi. Shahar ikki qismdan - Ichan qal'a ( shaharning ichki qismi) va Dishan qal'a ( shaharning tashqi qismi ) dan iborat edi. Ichan qal'ada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan bo'lib, ular asosan XIX asrda barpo etilgan. 1842-yilda Dishan qal'a qurilib devor bilan o'rab olinadi. Dishan qal'ada hunarmandlar , savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar ham istiqomat qilganlar.

Xiva xonligida taxminan 800 mingga yaqin kishi yashardi aholining ko'pchilik qismi o'zbeklar bo'lib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qo'ng'irot, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qangli, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O'zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismida , kanallar bo'ylarida joylashgan edi.

Ma'muriy hududiy jihatdan Xiva xonligi Hazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Kat , Shohabbos , Shovot, Toshhovuz, Ambor- ma'noda, Urganch, Xo'jayli, Shumanay, Qo'ng'irot kabi

beklik va viloyatlarga bo'lingan. Xonlik tarkibida Beshariq, va Qiyotqo'ng'iroq noibliklari ham bo'lgan. Beklilarni xon tomonidan tayinlagan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan.[3]

Qo'qon xonligi XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Qo'qon xonligi sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi bilan chegaradosh edi. Xonlik hududi shimolda uchala qozoq juzlarini batamom o'ziga bo'ysundirib olgan Rossiya bilan chegaralanardi. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li hududlarni o'z ichiga olar, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan qonli urushlar bo'lar, ular qo'ldan-qo'lga o'tardi.

Qo'qon xonligi hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq sersuv daryolari, so'lim vodiylari, serhosil yerlari ko'p edi. Xonlikning markazi Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan kabi shaharlar joylashgan Farg'ona vodiysi edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, So'zak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi. Qo'qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, taxminan uch millioncha kishi yashardi. Xonlikning poytaxti Qo'qonda sakson ming, Toshkent shahrida oltmish ming aholi yashagan. Qo'qon xonligi aholisining ko'pchilik qismi o'zbeklar edi. Shuningdek, xonlik aholisi tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bular bilan yonma- yon yahudiylar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham yashardi.

Qo'qon xonligi 15 ta bekklik ya'ni harbiy okrugga bo'lingan bo'lib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o'z hududidagi harbiy kuchlar qo'mondoni hamda fuqaro boshqaruvining boshlig'i ham edilar. Ular o'z tasarrufidagi qo'shinni o'zlari moddiy jihatdan ta'minlaganlar. Hokimlar harbiy yurishlar oldidan xonning birinchi da'vati bilan o'z qo'shinlari bilan belgilangan joyga yetib kelishlari shart edi. [4]

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, XVIII-XIX asr birinchi yarimida O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari geografik jihatdan qulay hududda joylashgan edi. Biroq ular

o'rtasida doimiy ravishda nizolar bo'lib turgan bo'lsada, savdo-sotiq, fan,san'at, madaniyat rivojlandi.Ammo ular o'rtasidagi o'zaro nizolar doimiy boshboshdoqliklar natijasida hududiy nizolar bo'lganligi ularning keyinchalik boshqa davlatlar xususan Rossiya tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ladi.Ammo ular o'rtasidagi o'zaro nizolar doimiy boshboshdoqliklar natijasida hududiy nizolar bo'lganligi ularning keyinchalik boshqa davlatlar xususan Rossiya tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R. Xoliqov, K.G'aniyev, M.Nasrullayev. O'zbekiston tarixi Samarqand - 2019;172-bet
2. Q. Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O'zbekiston tarixi. Toshkent "IQTISOD-MOLIYA "-2006; 204-bet
3. Zokirjon Saidboboyev. Tarixiy geografiya. "NOSHIR" TOSHKENT-2010; 140- bet.
4. Zokirjon Saidboboyev. Tarixiy geografiya. "NOSHIR" TOSHKENT-2010; 140- bet.